FARG'ONA VILOYATI RISHTON TUMANI HOKIMINING QARORI

2021 - yil 17 - dekabr 204-11-158-Q/21 Rishton tumani hokimligi

Tuman hududidagi yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli avtomototransport vositalari va ularga tirkamalarni majburiy texnik ko`rikdan o`tkazish to`g`risida

"Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida"gi O`zbekiston Respublikasi Qonunining (O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y., 9-son, 320-modda) 6,25-moddalari, "Yo`l harakati xavfsizligi to`g`risida"gi Qonunining (O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami, 2013-y., 15-son, 197-modda) 17-moddasi, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2003-yil 31-yanvardagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Transport vositalarini majburiy texnik ko`rikdan o`tkazish tartibi to`g`risida"gi Nizomga (O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami, 2003-y., 1-2-son, 17-modda) muvofiq transport vositalarining 2022-yilda majburiy texnik ko`rigini tashkil qilish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat`iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli avtomototransport vositalari va ularga tirkamalar tegishli tartibda majburiy texnik ko`rikdan o`tkazilsin.

2. Tumanda transport vositalarini texnik ko`rikdan o`tkazish quyidagi davriylikka muvofiq belgilansin:

a) tijorat asosida yo`lovchilar tashish uchun foydalaniladigan yengil avtomobillar, avtobuslar va o`tiriladigan joylar soni 8 ta va undan ortiq bo`lgan (haydovchining o`rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og`ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularga tirkamalar — bir yilda ikki marta;

b) ishlab chiqarilganligiga besh yildan ko`p bo`lmagan (ishlab chiqarilgan yili ham shu jumlaga kiradi) transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko`rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — ikki yilda bir marta;

v) ishlab chiqarilgan yilini hisobga olgan holda ishlab chiqarilganligiga besh yildan ortiq bo`lgan transport vositalari, shuningdek ishlab chiqarilgan vaqti aniqlanmagan transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko`rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — bir yilda bir marta;

g) tirkamalar ko`rikka transport vositasi — shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

d) navbatdagi texnik ko`rikdan o`tkazishning ilgari o`rnatilgan muddatlaridan qat`iy nazar, ularni DYHXX organlarida ro`yxatdan o`tkazish (qayta ro`yxatdan o`tkazish) vaqtida;

e) ular ishlab chiqarilgan yildan qat`iy nazar, DYHXX organlarida ro`yxatdan o`tkazilgan (qayta ro`yxatdan o`tkazilgan) kundan boshlab bir yil o`tgach (mazkur bandning “a” kichik bandida ko`rsatilgan holatlar bundan mustasno).

3. Mazkur qarorning 2-bandi “a” kichik bandida ko`rsatilgan transport vositalarining texnik ko`rigi:

birinchi marta — joriy yilning 1-martidan 30-iyungacha;

ikkinchi marta — joriy yilning 1-sentyabridan 31-oktyabrgacha o`tkazilsin.

Yuridik shaxslarga qarashli bo`lgan transport vositalarining texnik ko`rigi joriy yilning 1-martidan 30-iyungacha o`tkazilsin.

Jismoniy shaxslarga qarashli bo`lgan transport vositalarining texnik ko`rigi joriy yilning 1-yanvaridan 31-avgustgacha o`tkazilsin.

4. Tumanda texnik ko`rikni o`tkazish uchun tuzilgan komissiya tarkibi

1-ilovaga muvofiq, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo`lgan transport vositalarining 2022-yilgi majburiy texnik ko`rigini o`tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 31-yanvardagi “Transport vositalarini majburiy texnik ko`rikdan o`tkazish tartibi to`g`risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 54-sonli qarori 3-bandi talablaridan

kelib chiqib, O`zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy bo`linmalari transport vositalari ko`rsatib o`tilgan idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko`rikdan o`tkaziliishi nazarda tutilsin.

6. Majburiy texnik ko`rik davomida komissiya tarkibida ish olib boruvchi xodimlarning doimiy ish joylaridagi oylik ish haqlari saqlanib qolinsin.

7. Mazkur qaror Rishton xaqiqati gazetasida rasman e`lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e`lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o`rinbosari N.Oripov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **С.Солиев**